



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 25-yanvar

30-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2025-yil 22-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer resurslaridan samarali foydalanish va yer hisobini yuritishni muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 10-yanvardagi 4-son qarori ijrosi haqida”gi 23-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-yanvardagi 4-son hamda Namangan viloyat hokimining 2025-yil 25-yanvardagi 23-6-0-Q/25 –sonli qarolari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2025-yil 22-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer resurslaridan samarali foydalanish va yer hisobini yuritishni muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 10-yanvardagi 4-son qarori ijrosi haqida”gi 23-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-yanvardagi 4-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi:

yangidan o‘zlashtirilgan yerlar toifasiga (turiga) o‘zgartirish kiritish muddatlarini, mas’ullarning majburiyati va javobgarligini belgilash;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan va o‘rmon fondi yerlarining yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha takliflarni o‘rganishda vazirlik va idoralarning mas’uliyati va javobgarligini belgilash;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni ijaraga berish tartibini soddalashtirish kabi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari – Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i “Tuman suv yetkazib berish xizmati” DM (I.Abdullayev), Kadastr agentligining tuman bo‘limi (A.Shodmonov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-yanvardagi 4-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov